




UrDU Turizm va iqtisodiyot  
fakulteti

202- iqtisod guruh tolibi  
Razzaqov Javoxirning “ Korxonalar  
iqtisodiyoti ” fanidan tayyorlagan  
taqdimoti



**Mavzu:** Xorazm viloyati tuman va shaharlari KBXT rivojlanganligi bo'yicha guruhlashtirish.

## **Reja:**

- 1. Xorazmda KBXT ni rivojlantirish bo'yicha qilinayotgan ishlar.**
- 2. Xorazmdagi KBXT bo'yicha statistik ma'lumotlar.**
- 3. KBXT bilan shug'ullanuvchilarga berilayotgan imteyozlar.**

Xorazm viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ayni paytda vohaning ishlab chiqarish va servis sohasida 10 mingdan ortiq xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyat ko'rsatmoqda. Qishloq xo'jaligi, chorvachilik, sanoat, qurilish, savdo xizmati ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish uchun tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida kredit mablag'larini ajratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tijorat banklari tomonidan joriy yilning o'tgan davrida tadbirkorlarga o'n milliard so'mga yaqin kredit berilgani bunga dalildir.


Bundan tashqari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moddiy-texnika resurslarini sotib olish yo'lini soddalashtirish, viloyatda ishlab chiqarilayotgan xaridorgir mahsulotlarni sotish bo'yicha maxsus auksion savdolari o'tkazilmoqda. O'zbekiston Respublikasi xomashyo birjasining Xorazm filiali orqali shu kungacha tadbirkorlik subyektlariga qariyb 22 milliard so'm miqdorida moddiy-texnika resurslari yetkazib berildi, 8 million so'mlikdan ziyod konsalting xizmatlari ko'rsatildi. Mulkdorlarning siyosiy-huquqiy va iqtisodiy bilimini oshirish maqsadida Savdo-sanoat palatasining viloyat boshqarmasi qoshida o'quv kurslari tashkil etilib, mingdan ziyod tadbirkor jalb qilindi.

2015 yil 1- oktabr holatiga ko'ra ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik subektlarining soni 10834 tani tashkil qildi. Joriy yilda yalpi xududiy maxsulotning 75,2 foizi kichik biznes subektlari tomonidan ishlab chiqarilgan.

- Iqtisodiyotdagi jami ish bilan banlarning 81,7 %(570,9 ming kishi) kichik tadbirkorlik sektorlarida band bo'lganlar tashkil qiladi. Ulardan 23,6 % (134,5 ming kishi) kichik korxonalar va mikrofirmalar xissasiga to'g'ri keladi.
- Kichik biznes subektlari tomonidan sanoat maxsulotlarini ishlab chiqarish 113,7% o'sdi va 474949,2 mln so'mni tashkil etdi.

- Viloyat iqtisodiyotida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 54,6% Qurulish ishlarining 79,5% kichik biznes korxonalariga to'g'ri keladi.
- Kichik biznes subektlari tashqi savdo aylanmasi viloyat tashqi savdo aylanmasi hajmining 66,6 % tashkil qildi. Joriy yilda kichik biznes subektlari tomonidan umumiy eksport hajmining 52,4 % miqdoriga teng mahsulot eksport qilgan. Viloyat umumiy import hajmining 86,8 % teng miqdorda mahsulot import qildi.

**Iqtisodiyot tarmoqlarida yaratilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida, kichik tadbirkorlarning ulushining o'zgarishi quyidagicha ifodalanadi.**



2014y. yanvar-sentyaabr  
2015y. yanvar-sentyaabr









## Keyingi yillarda tadbirkorlarga berilayotgan imtiyoz va preferensiyalar:

- Kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 6 foizdan 5 foizga tushirildi.
- Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan soliq stavkasi o'rtacha ikki barobar kamaytirildi.
- Statistika, soliq va moliyaviy hisobotlarning shakllari va davriyligi bir yarim-ikki barobar qisqartirilgan.
- Davlat va nazorat qiluvchi idoralarning tadbirkorlik sub'ektlari bilan elektron shakldagi aloqasi bosqichma-bosqich joriy qilinayotir.

- Xususiy mulk taraqqiyoti, mulkdorlar huquqlarining himoyasini ta'minlashga xizmat qiluvchi oltita muhim qonun, jumladan, “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi, yangi tahrirdagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi qonunlar, shuningdek, ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, soliq va statistik hisobotlarni qisqartirishga qaratilgan qonun va normativ hujjatlar qabul qilindi.

- Yakka tadbirkorlarga 3 kishigacha ishchi olish ruxsat etildi.

## **Xulosa.**

Xulosa shuki Xorazmda KBXT ni rivojlantirish uchun barcha shart – sharoitlar yaratilmoqda. Xorazmda KBXT ni rivojlantirishdan maqsadi axolini zarur bo'lgan mahsulotlar va xizmatlarni bilan ta'minlash, ishsizlikni kamaytirish, Xorazmda iqtisodiyotni bir tekis rivojlantirishdan iborat.

## Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Xorazm viloyati statistik ko'rsatkichkari 2015-yil.
2. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturi.
3. Iqtisodiy geografiya fanidan maruzalar.



**E'TIBORINGIZ UCHUN  
RAXMAT**